

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 177 (1238), 2024-yil 1-sentabr, yakshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



YURTNING KUCHI — BIRLIKDA, QADRI ESA TINCHLIKDADIR!

Vatan mustaqilligining 33 yilligi! “Yangi O‘zbekiston” bog‘ida eng ulug‘, eng aziz bayramimiz tantanali nishonlandi. Dastlab Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zladi. Erishilgan yutuqlar, kelgusi rejalar haqida fikrlar ilgari surildi.



Bu haqda bir oz keyin batafsil to‘xtalamiz. Hozir ulug‘ kunni nishonlash uchun “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga borguncha bo‘lgan yo‘l taassurotlari, o‘ylarimiz haqida qisqacha

to‘xtalsak. Bayram tadbiri o‘tadigan manzilga qarab yo‘lga chiqqan avtobus to‘la odam. Barchaning yuz-ko‘zida masrurlik. Odamlar bir-biriga quvonchli xabarlar, yutuqlar haqida

gapiradi. Suhbatni jim eshitib ketayotganlar yuzida esa nimtabassum. Shukronalik! Shularni ko‘rib, kuzatib zavqlanaman va beixtiyor VATAN, MUSTAQILLIK, uning



quvvat manbai bo‘lgan sirli kuch haqida o‘ylayman...

O‘ttiz uch — sirli, mo‘jizakor raqam. U kamolot, yetuklik davri. Dunyo xalqlari

orasida ham bu raqamga nisbatan ma‘naviy, jismoniy barkamollik timsoli sifatida qarash mavjud. Unga muqaddas manbalarimizda ham dalil bor.

Mamlakatlar ham insonga o‘xshaydi. U ham biz kabi zamindan kuch, odamlardan iliq taft oladi.

[Davomi 4-betda](#)

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEVNING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O‘TTIZ UCH YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadrlı vatandoshlar! Muhtaram mehmonlar! Xonimlar va janoblari! Siz, azizlarni, ko‘p millatli xalqimizni bugungi ulug‘ ayyom bilan chin qalbimdan tabriklab, barchangizga o‘zimming yuksak hurmatim, ezgu tilaklarimni izhor etishdan baxtiyorman.

Mustaqillik bayrami barchamizga muborak bo‘lsin!

Qadrlı do‘stlar! Mana shu hayajonli daqiqalarda hammamiz milliy istiqlolimiz naqadar bebaho ne‘mat ekanini, uning tarixiy ahamiyatini yanada chuqur his etmoqdamiz.

Aynan mustaqillik tufayli milliy davlatchilgimiz qayta tiklandi. O‘zbekiston yangi tarixiy davrga qadam qo‘ydi. Aynan istiqlol tufayli Jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin egalladik.

Bu bilan har qancha faxrlansak, g‘ururlansak arziydi.

Shunday qutlug‘ kunda O‘zbekiston mustaqilligi uchun kurashgan vatanparvar ajdodlarimiz xotirasini minnatdorlik bilan yodga olishimiz tabiiy, albatta.

Ular — o‘z xalqini taraqqiyot sari boshlagan jaded bobolarimiz, milliy ozodlik yo‘lida jon fido etgan ulug‘ ajdodlarimizdir. Ular — g‘oyat og‘ir sharoitda ham milliy istiqlol va hurriyat g‘oyalariiga sodiq qolgan qahramonlarimizdir. Bugun ularning ezgu g‘oya va tamoyillariga tayanib, yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini yaratmoqdamiz.

Bu fidoyi zotlarning nomlarini hech qachon unutmaymiz!

Ularining xotirasi qalbimizda, yuragimizda hamisha yashaydi!

Hurmatli bayram ishtirokchilari! Keyingi yillarda Yangi O‘zbekistonni

barpo etish yo‘lida ulkan qadamlar qo‘ydik. Har bir ishimiz, har bir yutug‘imizda istiqlolning buyuk qudrati yorqin namoyon bo‘lmoqda.

Vatanimiz dunyoga, dunyo esa yurtimizga keng ochilmoqda. Mintaqamiz va butun jahonda do‘stlarimiz, hamkorlarimiz ko‘paymoqda.

So‘nggi 7 yilda O‘zbekiston tashabbuslari asosida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 10 dan ziyod, jumladan, joriy yilda 4 ta maxsus rezolyutsiya qabul qilindi.

Jahon banki bu yil mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 5,3 foizga o‘shishini prognoz qildi. Ko‘plab davlatlar bilan solishtirganda bu ancha yuqori ko‘rsatkichdir. Xalqaro valyuta jamg‘armasi e‘tirof etganidek, 2023-yilda yalpi ichki mahsulotimiz ilk bor 100 milliard dollardan oshdi.

[Davomi 4-betda](#)

ENG KATTA MAKTAB, ENG KATTA TARBIYA — TARIXNING O‘ZI

31-avgust — Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni. Shu munosabat bilan Shahidlar xotirasi xiyoboniga davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, nuroniyalar, ziyolilar yig‘ildi.

Marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirok etdi. Ajdodlar haqiga Qur‘on tilovat qilindi. Elga osh tortildi.

Bu marosim Mustaqillik bayrami bilan hamohang o‘tishi, millat oydinlari

yodga olinishidan ko‘ngil entikadi. Bu Vatanga fidoyilik yillar o‘tsa-da qadrlanishi, hech bir ezgu ish izsiz ketmasligini anglatadi.

[Davomi 4-betda](#)

PREZIDENTIMIZ PARALIMPIYA G‘OLIBLARINI TABRIKLADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Fransiya poytaxti Parij shahrida o‘tayotgan Paralimpiya o‘yinlarida terma jamoamizning ilk oltin medallarini qo‘lga kiritgan yengil atletikachilarimiz Asila Mirzayorova va Qudratilloxon Ma‘rufxo‘jayev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Asila Mirzayorova uzunlikka sakrashda 5,22 metr natija qayd etib, salkam 30 yil oldingi paralimpiya rekordini yangiladi. Qudratilloxon Ma‘rufxo‘jayev yadro uloqtirish bahsida g‘olib bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari ularni qizg‘in tabriklab, mehrlı so‘zlarini izhor qildi. Murabbiylari va ota-onasiga

minnatdorlik bildirdi. Boshqa sovrindor va ishtirokchi sportchilarga ham salom yo‘llab, muvaffaqiyatlar tiladi.

Paralimpiyachilarimiz tabrik va doimiy e‘tibori uchun Prezidentimizga rahmat aytib, yangi g‘alabalarga erishishga va‘da berdilar.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI SH.NORIVEVAGA “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO‘RSATGAN TADBIRKOR” FAXRIY UNVONINI BERISH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda tadbirkorlik harakatini yangi bosqichga ko‘tarishda o‘zining vatanparvarlik, ishbilamnonlik va tashabbuskorlik fazilatlarini yaqqol namoyon etib, ko‘plab istiqbolli loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirib kelayotgani, xususan, bog‘dorchilik, ko‘chatchilik va gulchilik tarmoqlarini ilg‘or tajriba va innovatsion usullar asosida rivojlantirish, hududda tomorqachilikni keng targ‘ib qilish, ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va farovonligini yuksaltirish, ijtimoiy masalalarni yechishda alohida faollik ko‘rsatayotgani, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, mehnatsevar va shijoatli insonlar etib tarbiyalash yo‘lidagi ibratli ishlari uchun Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumanidagi “Gulchi opa tomorqa xizmati” klasteri rahbari Noriyeva Sharofat Ergashevna **“O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan tadbirkor” faxriy unvoni** berilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri, 2024-yil 31-avgust

XORIJIY YETAKCHILARDAN O‘ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK BAYRAMI MUNOSABATI BILAN TABRIKLAR

Mamlakatimiz mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy davlatlar, parlamentlar va hukumatlar, nufuzli xalqaro institutlar va mintaqaviy tashkilotlar, yetakchi korporatsiya va kompaniyalar rahbarlaridan, taniqli siyosat, jamoat va din arboblariidan samimiy tabriklar kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Janobi Oliylari! Mustaqillik kuni munosabati bilan eng samimiy tabriklarimni izhor etaman.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ushbu muhim kunni nishonlashda O‘zbekiston Respublikasi xalqining xursandchiligiga qo‘shiladi. Bu Barqaror rivojlanish maqsadlarini ilgari surish, iqlim inqiroziga qarshi kurashish va barcha uchun imkoniyatlar va umidlarni kengaytirish muhimligini eslatadigan noyob fursatdir.

Tinchlik, barqaror taraqqiyot va barcha uchun inson huquqlarini ta‘minlashga yordam beradigan birdamlik va umumiy qarorlar uchun ayni payt.

Ushbu qutlug‘ kunni nishonlar ekanimiz, O‘zbekiston Respublikasi xalqi va butun dunyodagi barcha insonlar uchun yaxshi kelajak barpo etish borasidagi intilishimiz qat‘iy ekanini yana bir bor tasdiqlaymiz.

Janobi Oliylari, Sizga bo‘lgan yuksak hurmat-ehtirimimni qabul qilgaysiz.

Antoniū GUTERRISH, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Shavkat Miromonovich! O‘zbekiston Respublikasining milliy bayrami — Mustaqillik kuni munosabati bilan samimiy tabriklarimni qabul qilgaysiz.

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘lidan dadil bormoqda, mintaqaviy kun tartibidagi muhim masalalarni hal etishda faol ishtirok etmoqda, jahon maydonida o‘z mavqeiini mustahkamlamoqda.

Rossiya — O‘zbekiston munosabatlari strategik sheriklik va ittifoqchilik xususiyatiga ega. Moskva va Toshkent turli yo‘nalishlarda faol hamkorlik, MDH, SHHT va boshqa ko‘p tomonlama tuzilmalar doirasida samarali muloqot qilmoqda.

Birgalikdagi sa‘y-harakatlarimiz bilan bundan buyon ham do‘st xalqlarimiz farovonligi, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash yo‘lida konstruktiv ikki tomonlama aloqalarni izchil rivojlantiramiz, deb ishonaman.

Sizga, hurmatli Shavkat Miromonovich, chin qalbimdan mustahkam sog‘liq va muvaffaqiyatlar, barcha yurtdoshlaringizga esa baxt-saodat va ravnaq tilayman.

Hurmat bilan,

Vladimir PUTIN, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Prezident janoblari! O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan Sizga va do‘st O‘zbekiston xalqiga samimiy tabriklarim va eng ezgu tilaklarimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Sizning rahbarligingizda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi faol amalga oshirilmoqda, davlat qurilishida samarali natijalarga erishilib, xalq farovonligi kun sayin yuksalib bormoqda. Yangi davrda har qanday har tomonlama strategik hamkor sifatida Xitoy tomoni bundan mamnun.

Joriy yilning yanvar oyida Pekinda va iyul oyida Ostona shahrida Siz bilan muzokaralar o‘tkazdik, ular davomida Xitoy — O‘zbekiston hamkorligi bo‘yicha ko‘plab muhim kelishuvlarga erishildi va ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishning yangi yo‘nalishlari belgilab olindi. Yagona taqdirda ega Xitoy — O‘zbekiston hamjamiyatini qurishni yanada chuqurlashtirish maqsadida Siz bilan yaqin aloqalarni davom ettirishga va strategik aloqalarni mustahkamlashga tayyorman.

O‘zbekistonga ravnaq va kuch-qudrat, xalqiga esa baxt-saodat va farovonlik tilayman.

Si SZINPIN, Xitoy Xalq Respublikasi Raisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylariga

Hurmatli Prezident janoblari! Qo‘shma Shtatlar xalqi nomidan Sizga va O‘zbekiston xalqiga mamlakatimiz Mustaqillik kuni munosabati bilan eng ezgu tilaklarimizni yo‘llamoqdaman.

1991-yilda mamlakatimiz mustaqilligi e‘lon qilinganidan buyon O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot va mintaqaviy barqarorlik yo‘lida salmoqli yutuqlarga erishdi. Ushbu voqealar mamlakatlarimiz o‘rtasida tobora sarmazmun va jadal strategik sheriklikka olib keldi. Chegara xavfsizligini mustahkamlash, ikki tomonlama savdo hajmini oshirish va O‘zbekistonning boy madaniy merosini muhofaza qilish bo‘yicha ish olib borish kabi umumiy maqsadlarimizga erishish yo‘lida amalga oshirgan ishlarimizdan faxrlanaman.

Qo‘shma Shtatlar mavjud aloqalar mustahkamlanishi va hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochilishini intilqlik bilan kutib qoladi. Sizga mamlakatimiz mustaqilligini shodlik va quvonch ila o‘tkazishingizni tilab qolamiz.

Hurmat bilan,


Joezef BAYDEN, Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti

[Davomi 2-, 3-betda](#)

VATANGA JONFIDOLAR DARSINI UQDIM

Usmon AZIM,
O'zbekiston xalq shoiri

Vatanparvarlik — ilohiy tuyg'u. Vatanni ham, vatanni sevmog'ni ham insonga Parvardigor in'om etgan. Bo'lmasa nega "Vatan" deyilsa, ruhu vujuding junbishga keladi? Bu sehrli tuyg'uning boshu adog'i qayerda? Nega sen vatanga bir gard tushganda to'lg'onasan? Uning pokiza bo'lishini jon-dildan xohlaysan? Chunki bu yurtda bejiz dunyoga kelmagansan. Uni taqdirim deb bilgansan. Uning shonu shavkati sening ham shonu shavkating ekanini anglaysan. Bilasan, kezi kelganda, undan joningni ham ayamaysan.



Yana yaqindagina bo'lgan voqea. Olimpiadaga yo'l olayotgan bokschilarimiz safar oldidan Milliy teatr — men yozgan drama asosida sahnalashtirilgan "Cho'lpon" spektakli tomoshasiga tushgan ekan. Teatr rahbari Yodgor Sa'diyev sportchilarimiz tomoshadan so'ng naqadar hayajonlanganini menga gapirib berdi. Bokschilarimizning Parijdagi g'alabalarini televizordan g'urur bilan tomosha qilib o'tirganimda, bu yigitlarning shijoatida Cho'lponning ham vatanga muhabbatidan bir zarra bo'lishi mumkinligini tasavvur etdim. Vatan uchun jonini bergan shoirming fidokorligi nega uning hayotidan dars olgan yigitlarning zarbasiga ko'chmasin?!

Ha, sportchilarimizning Olimpiadadagi qahramonligidan boshim osmonga yetdi. O'zbekistonda men bilmaydigan yana qanchadan qancha kamtar vatanparvarlar borligi haqida o'yladim. Borlig'im quvunch-u faxrga to'ldi.

Vatanni sevishdek muqaddas tuyg'u insonning qandayligini belgilab beradigan mezon. Vatan uchun borini berib xizmat qilayotganlardan, xalq farovonligi uchun yelib-yugurayotganlardan chin qalbdan faxrlanaman. Ularni opa-singillarim, aka-ukalarim, farzandlarim deb bilaman. Ular juda ko'pligini ham tasavvur etaman. Haqiqatan, ular juda ko'p! Qanday yaxshi! Boshida aytganim o'sha "Cho'lpon" spektakliga tushgan tomoshabinlarning dam-badam olqishlaridan, tomosha tugagandan keyin ham uzoq olqishlab turishlaridan ularning tomirida bu ulug' dard — vatan tuyg'usi jo'shib turganini his qilaman. Yana qaytarib aytaman, biz — vatanparvarlar ko'pmiz! Juda ko'p!

Vatan taqdiriga beparvo qaraydiganlar esa menga behora odamlar bo'lib tuyuladi. Yaxshi kun ko'rish uchun boshqa mamlakatning fuqaroligini ming azobda olib, vatanni tark etganlarga rahim keladi. Vatanning qadriga yetmaganlar Allohning in'omidan voz kechgan gumrohlardir.

Vatanning ravnaqi uchun ertayu kech o'zini ayamay, yonib-kuyayotganlarni qadrlayman. Ular farishta odamlar.

Vatan manfaatini bir chetda qolib, poraxo'rlik, nayrangbozlik qilayotganlar, faqat o'z cho'ntagini o'ylayotganlar esa dushmanim.

Maqola so'ngida bir gapni aytay. Mening xushomadidan yiroq odamligim ko'pga ma'lum. Ammo baribir O'zbekistonni qudratli mamlakatga aylantirish uchun jon-jahdi bilan harakat qilayotgan rahbarimizga tasannolar aytmoqchiman. Chunki ko'zim bilan ko'rib, yuragim bilan sezib turgan bu haqiqatni aytmaslik ham adolatdan emas.

O'zbekistonga ko'z tegmasin! Gullab-yashnayversin! Men bu dunyodan ketganimdan keyin ham ruhim yurtimning ravnaqidan shod-u xurram bo'lib, falaklarda uchib yursin!

YURTIMNI YAXSHI KO'RISHIM KO'Z YOSHLARIM KABI TABIIY

Munojat YO'LCHIYEVA,
O'zbekiston Qahramoni

"Men nechun sevaman O'zbekistonni?" degan savolga birdan javob berish mushkul. Inson nima uchun ota-onasini, yaqinlarini yaxshi ko'radi? Sababi, ular jon tomiring tutashgan jigarlaring, yaqinlaring. Vatanga ham xuddi shu yaqinlaring kabi ta'masiz, izohsiz mehr beriladi. Inson yurtiga muhabbatini u bilan faxrlanganida yanada teran his etarkan. Doim xorijning katta sahnalariga chiqqanimda yurtimiz, xalqimizning bebaho merosi bilan faxrlanaman.



Dunyo sahnasiga ilk bor 1995-yilda Fransiyaning "De la Vill" teatrida o'tkazilgan festivalda chiqqanman. Tashkilotchi ayol tomoshabinlar xohlasa, kuylagan qo'shig'imni tinglashi, xohlamasa chiqib ketishi tabiiy ekan, bundan xafa bo'lmalikni aytdi. Sahnada kuylay boshlagach, xayolimda qachon, qaysi tomoshabin chiqib ketarkan, degan savol aylanaverdi. Ammo dastur oxirigacha hech kim zalni tark etmadi. O'shanda muxlislarim maqom, qadim ajdoddan o'tib kelayotgan ohang, o'zbek musiqasi sehlragan edi. Ana shunday katta va beqiyos madaniy boylikning merosxo'ri ekanimizdan doim faxrlanaman.

Darhaqiqat, boy madaniy merosimiz nafaqat xalqimiz, balki insoniy tuyg'ularni, ezgulik, adolat va tenglikni tarannum etadi. O'zbekistonda san'atning bu kuchidan o'rinni foydalanilmoqda. Buni Samarqandda bo'lib o'tgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali misolida ham ko'rдик. Registon maydonida dunyoning ko'plab mamlakatlari bayrog'i tinchlik, do'stlik nafasidan hilpirab turdi. Aytning-chi, shunday yurtdan faxrlanmay, uni sevmay bo'ladimi!

Shu o'rinda bir voqeani eslamog'chiman. Belgiyada o'tkazilgan "Ayol ovozi" festivalida ochiq dars o'tildi. Ustozim Shavkat Mirzayev bilan kelishib, osmonroq ashlualardan "Tanovar"ni o'rgatamiz, dedik. Biroq ular bizga maqomlardan o'rgating, dedi. Toshkent — Farg'ona yo'nalishidan "Bayot-4"ni mashq qildik. Oradan bir-ikki yil o'tgach, o'sha tinglovchilarimiz yurtimizga kelib, hujjatli film tayyorladi. O'z o'rnida bizni Belgiyaga navbatdagi festivalga taklif qilishdi. Bordik. Bizga birinchi qatordan joy berishdi. Festival boshlanishida katta ekranda O'zbekistonda olingan lavhalar namoyish qilindi. Samarqanddagi minoralar, Buxorodagi ziyoratgohlar ko'rsatildi. So'ng rahmatli onam ko'rinish, qo'shiq aytga boshladi: "Sunbulay sunbula, O'rab olay gul bilan...".

Ko'zlarim quvunch yoshiga to'ldi. Bu shu yurt farzandi bo'lgan insonning o'z vatani, san'atidan faxrlanishi, quvunch ko'z yoshlari. U onamday mo'tabar, maqomlarimizday hayotbaxsh muhabbat edi. Yurtimni yaxshi ko'rishim o'sha ko'z yoshlarimday tabiiy.

Aslida, baxtimiz O'zbekiston degan jannatmonand ona diyorda tug'ilganimizda! Obod va ozod diyorning farzandi bo'lganimiz — taqdirning siylovi. Shu yerda dunyoni tanib, u bergan imkoniyatlar sabab vatan bayrog'ini jahon arenasida baland ko'tara olganimdan faxrlanaman.

VOLIDAM SOG'INCHIDAY IZOHLAB BO'LMAS MUHABBAT



Bahodir JALO'LOV,
ikki karra Olimpiada chempioni

Vatan ne, ota-ona kim, ularning qadri inson hayot sinovlarini yengib o'tish jarayonida anglab borar ekan. Demoqchimanki, bunday tushunchalar yoshga emas, hayot yo'limizga bog'liqligini angladim. Menga taqdir sinovli kunlarni juda erta berdi. Shu sinovlar ichida O'zbekistonni nechun sevimlini angladim. Uydan olisda yurib, qiyinchiliklar ichida o'qib, mashq qilib Sariosiyoqga ketgim kelganida, o'zim bo'ylashib o'sganim azim tog'larni ko'rgim kelganda vatan haqidagi tushunchalarim shakllanib borgan.

Boksda ringga chiqishdan oldin raqibni obdan o'rganasan. U qaysi tomondan qanday zarba berishi mumkinligini bilib, shunga qarab ish tutasan. Ammo hayot ringga o'xshamaydi. Uning zarbasi ham, tufasi ham kutilmaganda kelar ekan. Menda ham xuddi shunday bo'ldi. Avval hayot nomli ringda zarbalarni o'tkazib oldim, so'ng uning mukofoti kela boshladi.

Darhaqiqat, bolalik, o'smirlk chog'larimda ko'p qiyinchiliklarni ko'rdim. Nohaqliklarga duch keldim, yetishmovchilik nima ekanini boshimdan o'tkazdim. Qormim nonga to'yamay, yotoqxonada yotishga joyim bo'lmay, zulmatli tunlarda zo'r'ga tong ottingan kunlarim ko'p bo'lgan. Yonimda pulim yo'qligi sabab

Chirchiqdan poytaxtgacha piyoda kelganim ham rost. O'sha vaqtlarda 14 yoshga ham to'lmagan o'spirin bola edim...

Har bir inson uchun o'zining tug'ilib o'sgan diyordan ardoqliroq maskan va o'z yurti e'zozidan sharafliroq mukofot bo'lmaydi. Yutuqlarim, g'alabalarim ortida onajonim va xalqimning duolari, ishonchi, davlatimiz rahbarining g'amxo'rligi, rag'batlari muhim. Yurtimizda yaratilgan imkoniyatlar, barcha sohalarida yoshlar birdek qo'llab-quvvatlanayotgani qiyinchiliklarni yengib, sportda shunday katta g'alabalarga erishishga sabab bo'ldi. Ha, davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar menga yorug', nurl va zafarli yo'llarni ochib berdi! Bunday e'tibor menga ulkan kuch, shijoat bag'ishlaydi. Parijda o'tgan musobaqalarda ham muxlislarimiz yurtimiz bayrog'ini baland tutib, bizga dalda berganidan katta quvvat oldim. O'sha damlarda xalqimiz, davlatimiz dalasini doim his qilib turdim.

Aslida, baxtimiz O'zbekistondek jannatmonand ona diyorda tug'ilganimizda! Obod va ozod diyorning farzandi bo'lganimiz — taqdirning siylovi. Shu yerda dunyoni tanib, u bergan imkoniyatlar sabab vatan bayrog'ini jahon arenasida baland ko'tara olganimdan faxrlanaman. Shu hissiyotning o'ziyoq vatanga bo'lgan mehrimizni izohlash kerak. Yana bir muhim gap, agar taqdir hukmi boshqacha kechib, hozirgi yutuqlarim bo'lmaganida ham baribir yurtimizni hozirgiday yaxshi ko'rdardim. To'g'ri, nima uchun yaxshi ko'rishimni to'liq tushuntirib berolmayman. Ammo vatan sog'inchini, unga bo'lgan mehrimni volidamni yaxshi ko'rganday his qilaman.

ONA DIYORNI KUCHLIROQ SEVISH BURCHIMIZ



Qozoqboy YO'LDOSH,
pedagogika fanlari doktori,
professor

Sevgi, asosan, tabiiy ravishda o'z-o'zidan, sababu oqibatini to'la anglab bo'lmaydigan yo'sinda yuzaga keladigan ruhiy holat. Ammo odam tirikligidagi g'aroyibot shundaki, ba'zan sevgi ham burch va majburiyat singari tuyg'uiga aylanishi kerak bo'ladi. Shunday bo'lishini odamlilik, odamiylik taqozo etadi. Chunonchi, har bir chinakam odam oldiniga o'z ota-onasi va yaqinlarini, keyin ular mansub bo'lgan millatni hamda ular yashaydigan yurttni boshqa maskanlarga qaraganda kuchliroq sevishga burchli hisoblanadi.

Har qanday odam muayyan ota-ona, aniq makon va zamonga mansub holda dunyoga kelishday qismatga mahkum. Ayni shu holda o'ziga xos hikmat mavjud. Demak, odam ilk yaralishidayoq mansublik va o'sha mansublik oldidagi majburiyat yuki bilan dunyoga keladi.

Bolaligida ota-onasi yoki yaqinlari tomonidan parvarishlangani kabi ular mansub bo'lgan yurt va el-uluga xos ruhiy-ma'naviy sifatarni o'zlashtiradi. Agar odamning qismati ota-ona, millat va yurtga bog'liq bo'lmaganida, boshqa jonliqlar singari yaqinlar va yurtga befarq yaratilgan bo'lar edi.

Odam narsa-hodisani o'ziga tegishli bo'lmaganidan yaxshiroq ko'radi. Vatan o'zini taniyadigan har bir odamga bevosita tegishlidir. O'zini ko'bo'lgani uchun yurttni sevadi. Xuddi o'z ota-onasini boshqalarning ota-onasidan ortiqroq sevgani yanglig'. Men ham O'zbekistonni aynan meniki bo'lgani uchun sevaman. U boricha meniki va uni boricha sevaman. Menga uni seviladigan darajaga keltirib berishlarini kutib o'tirmayman. Uni o'zim sevadigan darajaga o'zim keltirishim kerak deb o'ylayman.

Vatan tanlanmaydi. Xuddi ota-ona tanlanmagani kabi. Tanlangan maskan vatan emas, u shunchaki yaxshi yashash mumkin bo'lgan bir qo'nalg'adir, xolos. Keyingi vaqtda otanani ham, vatanni ham tanlash kerak, deydidigan kimsalar paydo bo'layotgani juda tashvishli hol.

Vatan, yurt odamning ko'nglidan tashqarida yotgan tuproq, qandaydir miqdordagi yer parchasigina emas. Maskan qachon vatanga aylanadi, qachonki u tashqaridagi tuproqdan ko'ngildagi holatga, tuyg'uiga evrilsa. Shu ma'noda, yurt tuprog'i odamning tashqarisida yotganida emas, uning ichkarisiga kirgachgina vatanga aylanadi.

Odamlar va makonlar turlicha bo'lgani singari vatanlar ham turlicha. Yurt chinakam yurt egasi tomonidan qulay va boy bo'lgani sabab emas, balki vatan bo'lganining o'zi uchun seviladi. U millat, ota-ona kabi o'z-o'zidan ko'ngil va jonga



tutash, ya'ni seviladigan hodisadir.

Vatanni tamsil etuvchi va undan ayro tushmaydigan o'zlik, g'urur, iftixor, til, sha'n, or singari ma'naviy unsurlar bor. Ana shularga egalik va amal qilish yurtdoshni, demakki, yurttni yuksaltiradi.

Odamning qismati shundaki, balog'at yoshidagi har bir inson hech qachon faqat o'ziga tegishli bo'lib qololmaydi. Ayniqsa, tashqarida u hamisha oldin vatanga, so'ng millatiga, keyingina o'ziga tegishli yaratqiy hisoblanadi. Demak, bizning o'yalarimiz, tuyg'ularimiz, tutum va amallarimiz oldin vatanga, so'ng millatga, keyingina o'zimizga tegishli bo'ladi. O'zga vatanda, boshqa millat vakillari oldida biz oldin o'zbekistonlik, keyin o'zbek, so'nggina muayyan bir shaxsmiz. Demak, shunga yarasha bo'lmog'imiz talab qilinadi.

Yurt, vatan qachon suyuqli bo'ladi? Qachonki yurtida har bir yurtdosh qurq topsa, uning erki, orzu-istaklari hisobga olinsa, menligi va o'zligi qiymat kasb etsa. O'shanda yurtdoshning qudrati yurtga ko'chib o'tadi. Yurttni qurol-aslaha yoki moddiy to'kislikdan ham ko'ra yurtdoshning unga bo'lgan chin muhabbati qudratli qiladi, deb o'ylayman. Yurt qudrati qo'limiz va ko'nglimizda!

Suyuqli elimdagi barcha yurtdoshlarimni bo'sag'ada turgan egamanlik bayrami bilan qutlayman!

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetaları tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2991.
41369 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolopak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'Z A yakuni — 00:25 Topshirildi — 04:30